

**SUD TERGOVI MAZMUN MOHIYATI**

*Sherqobilov Abror Rashid o'g'li*  
*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*  
*3-o'quv kurs 319-guruh kursanti*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola orqali muallif O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asoslangan holda sud tergovining mazmun mohiyatini yoritib mavzuni ilmiy tahlil qilgan.

**Kalit so'zlar:** *ko`p (epizod), dalillarni ko`zdan kechirish, raislik qiluvchi, voyaga yetmagan, ichki ishonch.*

**АННОТАЦИЯ**

Посредством данной статьи автор сделал научный анализ темы, осветив сущность судебного следствия на основе законодательства Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** *множественный (эпизод), проверка доказательств, председательствующий, несовершеннолетний, внутреннее доверие.*

**ANNOTATION**

Through this article, the author made a scientific analysis of the topic, highlighting the essence of the judicial investigation based on the legislation of the Republic of Uzbekistan.

**Key words:** *multiple (episode), review of evidence, presiding, minor, internal trust*

Sud majlisining tayyorlov qismida o'tkazilishi lozim bo'lgan barcha prosessual harakatlar bajarib bo'lingandan so'ng, sud muhokamasining asosiy qismi hisoblangan-sud tergoviga o'tiladi. Aynan shu qismda barcha to'plangan dalillar tekshiriladi va chiqariladigan hukm uchun zamin yaratiladi. Sud tergovi-yangi prosessual sharoitda dalillarni mustaqil va ijodiy ravishda tekshirish bosqichidir. Bu bosqichda har bir dalil sud tomonidan har tomonlama va batafsil tekshirib chiqilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat prosessual kodeksining 439-moddasiga asosan sud tergovi ayblov xulosasini o'qib eshittirishdan boshlanadi. Ayblov xulosasini o'qib eshittirilganidan so'ng, sudlanuvchiga, agarda jinoyat ishi bo'yicha bir necha sudlanuvchi bo'lsa, har bir sudlanuvchiga raislik etuvchi tomonidan ayblov mazmunini tushunarli bo'lganligi, sodir etilgan jinoyatning mazmuni va uning huquqiy jihatdan baholanishi aniqlaniladi. Agarda sudlanuvchiga yoxud sudlanuvchilarning birontasiga ayblov mazmuni yoxud jinoyatning mazmuni yoxud, sodir etilgan jinoyatning huquqiy baholanishi tushunarli bo'lmasa unda sudlanuvchilar qanday jinoyatni sodir qilishda ayblanayotganliklari, ularning qilmishi Jinoyat

Kodeksining qaysi moddasi bilan kvalifikasiya qilinganligi, ayboma qanday asoslarga tayanganligi, ayblov xulosasi qanday dalillarga asoslanganligi, dalillarning mazmuni aniq tushuntirilishi lozim. Shundan so`ng, sudlanuvchidan unga nisbatan qo`yilayotgan aybga iqrор yoki iqrор emasligi aniqlanishi kerak. Sudlanuvchi o`z aybiga qisman iqrорligini bildirgan hollarda, aynan ayblovning qaysi qismiga iqrор, qaysi qismiga esa iqrор emasligi aniqlanadi.

Bunday hollarda, nima sababdan aybiga iqrор emasligi, nima sababdan aybini faqatgina bir qismigagina iqrорligi to`g`risida paydo bo`lgan savollarni berilmasligi kerak. Chunki, bu savollarga javobni sud tergovi boshlangandan so`ng, so`z navbati kelganida sudlanuvchi tomonidan batafsil izohlab berish imkoniyati bo`ladi. Sud tergovida dalillarni bevosita tekshirishga kirishishdan avval, sud ularni qanday tartibda va qanday ketma-ketlikda ko`rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo`ladi degan savolga javobni aniqlab olishi lozim. Sudlanuvchilardan o`z ayblariga iqrорliklari yoki iqrор emasliklari so`rab aniqlangandan so`ng, sud dalillarni tekshirish navbati haqida sud prosessi ishtirokchilarining takliflarini eshitadi. Amaliyotda, odatda birinchi bo`lib, davlat ayblovchisining taklifi eshitiladi.

Sud tergovini olib borish tartibi haqida prokuror o`z fikrini bildirayotganida, albatta, dalillarni tekshirish navbatini aynan kimni so`roq qilishdan boshlanishi kerakligi haqidagi xulosasida shu tartib orqali jinoyat ishi bo`yicha to`plangan dalillarni sud tergovni mobaynida xolisona, har tomonlama va to`liq o`rganib chiqish imkoniyati paydo bo`lishligini tushuntirib berishi kerak. Prokuror sud tergovini boshlash navbati to`g`risida fikr berish bilan birga sudda ekspert xulosalari, ashyoviy va yozma dalillarni tekshirish ketma-ketligiga nisbatan ham o`z munosabatini bildiradi. Ayniqsa, murakkab, ko`p (epizod) voqeali hamda, bir necha sudlanuvchilar qatnashayotgan jinoyat ishlari bo`yicha sud tergovini yuritish tartibini belgilab olinishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu tartib jinoyat ishini sud tomonidan har tomonlama, xolisona va to`la ko`rib chiqilishiga yordam beradi. Har bir voqea bo`yicha dalillarni guruhlab olishga va prosess ishtirokchilari tomonidan tegishli tartibda baholanishiga, to`plangan dalillarni qoldirmasdan, xatosiz ko`rib chiqishga asos bo`ladi.

Dalillarni tartib bilan tizim asosida ko`rib chiqilishi sud tergovini yuritilishida muhim ahamiyatga ega. Taraflarning takliflarini hisobga olgan holda, dalillarni tekshirish navbati haqida sud o`z o`rnida ajrim chiqaradi (Jinoyat-prosessual kodeksining 440- moddasi). Dalillarni tekshirish sudlanuvchilardan boshlangan bo`lsa, sud sudlanuvchilardan keyin albatta jabrlanuvchilarni so`roq qilishi lozim. Agarda, sudlanuvchilar ko`rsatma berishdan bosh tortgan bo`lsalar yoxud birinchi bo`lib, ko`rsatma berishni istamayotgan bo`lsalar, jabrlanuvchini, guvohlarni so`roq qilish, dalillarni ko`zdan kechirish, guvohlantirish, yozma dalillarni o`qib eshittirish, ekspertiza o`tkazish va boshqa sud harakatlarini bajarish to`g`risidagi takliflarni

inobatga olgan holda hal qiladi. (JPK 440-moddasi). Sud har bir jinoyat ishi bo`yicha dalillarni tekshirish navbatini ishning mohiyatiga qarab, turlicha belgilashi mumkin.

Qonun tomonidan dalillarni tekshirishning qat`iy navbati belgilanmagan. Har qanday holatda, sud majlisi raisining to`liq ixtiyoriga bo`liq holda hal qilinadi. Hatto, dastlab sud tergovida dalillarni tekshirish navbati o`zgacha belgilangan bo`lsa ham, ishni ko`rish mobaynida raislik qiluvchi tomonidan ashyoviy dalillarni va boshqa dalillarni tekshirish ketma-ketligini proses ishtirokchilarining iltimoslariga ko`ra yoxud o`z ixtiyoriga ko`ra o`zgartirishi mumkin. Ushbu masala sud tomonidan hal qilinganida, albatta sud tegishli tartibda ajrim chiqaradi. Sudlanuvchi jinoyat ishi bo`yicha o`z ko`rgazmasini har bir voqea (epizod) bo`yicha alohida-alohida berishi yoki ish bo`yicha o`ziga ma`lum bo`lgan barcha holatlarni to`lalgicha bayon qilishga haqli.

*Sud tergovida so`roq qilish* O`zbekiston Respublikasi JPKning 442-moddasiga asosan sud tergovida so`roq qilish tartibi belgilangan bo`lib, unda ko`rsatilishicha, so`roq qilish JPKning 96-108-moddalarida nazarda tutilgan talablarga hamda bevosita 442-moddaning o`zida ko`rsatilgan talablar asosida amalga oshirilishi kerak. Ushbu modda talabiga ko`ra, har bir guvoh hali so`roq qilinmagan guvohlar yo`qligida so`roq qilinadi. So`roq qilingan guvohlar sud majlisi zalida qoladilar va sud tergovi tamom bo`lmasdan ilgari zaldan faqat sudning ijozati bilan chiqib ketishlari mumkin. Voyaga yetmagan guvohni so`roq qilish haqiqatni aniqlash manfaatlari talab qilgan hollarda sudning ajrimi bilan sudlanuvchining yo`qligida o`tkazilishi mumkin. 16 yoshga to`lmagan guvoh so`roq qilinib bo`lgach, zarurat bo`lmasa, sud zalidan chiqarib yuborilishi lozim. Jabrlanuvchi, ekspert va mutaxassis sud muhokamasining boshidan oxirigacha sud majlisi zalida bo`lishga va barcha so`roqlar choq`ida hozir bo`lishga haqlidir. JPK da sudlanuvchini so`roq qilishni Sudya boshlab beradi, u ishning ma`lum bo`lgan holatlari to`g`risida ko`rsatuv berish taklifini kiritadi. Shundan so`ng sudlanuvchini davlat ayblovchisi, jamoat ayblovchisi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da`vogar va ularning vakillari, himoyachi, jamoat himoyachisi, fuqaroviy javobgar va uning vakilini so`roq qiladilar. Shundan keyingina sudlanuvchiga boshqa sudlanuvchilar va ularning himoyachilari savollar berishi mumkin. (JPK ning 442-moddasi). Sudyaning taklifiga ko`ra sudlanuvchi voqea holatlarini erkin so`zlab beradi. Sudya sudlanuvchining so`zlab bergan ko`rsatmasidan aynan voqea holatlari shunday sodir bo`lgan deb hisoblamasdan, bo`lishi mumkin bo`lgan voqea tafsilotlari haqidagi taxminlarning biri deb hisoblashi kerak. Sud sudlanuvchini bergan ko`rgazmasini haqiqatmi yoki yo`qmi, jabrlanuvchini, guvohlarni so`roq qilib va boshqa dalillarni batafsil tekshirilganidan so`ng, dalillarni bir-biriga taqqoslashi, ayblov xulosasida bayon qilingan har bir holatni tekshirib chiqqanidan so`nggina haqiqiy holatni aniqlab, o`zining ichki ishonchiga asosan dalillarga qonuniy baho berishi mumkin.

*Sud tergovida dalillarni tekshirish va ularga baho berish*

Sud tergovining prosesual maqsadi sudda ko`rib chiqish uchun taqdim qilingan dastlabki tergov materiallarini o`zining o`rganib chiqish emas, sud muhokamasi ishtirokchilari hamda bevosita sudning o`zini tashabbusi bilan to`plangan va taqdim qilingan dalillarni ham tekshirib chiqib, real haqiqatni aniqlash imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Sud tergovi mobaynida quyidagilar aniqlanadi: jinoyat hodisasi; ayblanuvchining jinoyat sodir qilishdagi aybi; aybdorlik darajasi va xarakteriga ta`sir qiluvchi holatlar; jinoyat tufayli etkazilgan zararning xarakteri va miqdori. Sud hukmining sifati, qonuniyligi, asoslanganligi hamda adolatliligi ko`pincha sud tergovining to`la, har tomonlama va xolisona olib borilganligidan kelib chiqadi. Chunki, sud hukmi sud tergovi mobaynida aniqlangan dalillargagina asoslanadi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Sud hukmi to`g`risida"gi 1997 yil 2 maydagi 2-sonli qarorini 4-bandida "Sudlanuvchi tomonidan tergovda yoki sudda aybini bo`yniga olish holati u ish bo`yicha to`plangan hamda sudda tekshirilgan boshqa dalillar bilan xolisona tasdiqlangandagina ayblov hukmi chiqarishga asos bo`la oladi. Bu talab ayblov hukmi taxminlarga asoslangan bo`lishi mumkin emasligi va sudlanuvchining aybdorligi sud muhokamasi jarayonida isbotlangan taqdirdagina chiqarilishi lozimligi haqidagi JPKning 463-moddasi mazmunidan kelib chiqadi" deb qo`yilgan. Shuningdek, shu qarorning 3-bandi so`ngida "JPKning 26 va 455-moddalari talabiga binoan hukm faqat sud majlisida tekshirilgan va sud majlisi bayonnomasida o`z aksini topgan dalillarga asoslangan bo`lishi lozim" deb qayd qilib qo`yilgan. Ushbu qaror talablaridan ko`rinib turibdiki, sud tergovi O`zbekiston Respublikasi JPKning 22-moddasi talablari asosida har tomonlama, to`la va xolisona amalga oshirilishi lozim. Sud bevosita va shaxsan barcha dalillarni sud muhokamasida tekshirib chiqishi shart. Sud tergovi mobaynida sud jinoyat ishi bo`yicha to`plangan barcha dalillar bilan birga sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, ekspert va xolislarni qaytadan so`roq qilishi, ashyoviy dalillarni ko`zdan kechirishi, tegishli ekspertiza tayinlashi, sud tergovi eksperimentini o`tkazishi va hokazolarni bevosita va qisqa muddatda amalga oshirishi mumkin. Dastlabki tergov mobaynida to`plangan barcha dalillarni sud tergovida to`plangan dalillarga taqqoslab, solishtirib ko`rib, real haqiqatni aniqlab olishi kerak. O`zbekiston Respublikasi JPKning 441-moddasiga asosan, guvohni so`roq qilishdan oldin raislik qiluvchi uning shaxsini aniqlaydi va ko`rsatuv berishdan bosh tortganlik yokibila turib yolg`on ko`rsatuv berganlik uchun javobgarlik to`g`risida ogohlantiradi. Shundan so`ng, raislik etuvchi guvohga barchaning oldida oshkora ravishda "Ish yuzasidan o`zimga ma`lum bo`lgan hamma narsani sudga aytib berishga qasamyod qilaman. Faqat haqiqatni, barcha haqiqatni gapirib beraman, haqiqatdan o`zga narsani gapirmayman" degan mazmundagi qasamyod qilishni taklif etadi hamda bu haqda ulardan tilxat oladi. 16 yoshga to`lmagan shaxslar ham xuddi shunday qasamyod qiladilar. Lekin ular bila turib yolg`on ko`rsatuv bergani uchun hamda ko`rsatuv

berishdan bosh tortganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar va bu haqda ulardan tilxat olinmaydi. Sud tergovni mobaynida O`zbekiston Respublikasi JPKning 443-moddasi talablariga ko`ra, yozma dalillarni, ekspert xulosalarini va tergov harakatlari bayonnomalarini taraflarning iltimoslariga yoki sudning tashabbusiga ko`ra raislik qiluvchi, xalq maslahatchilaridan biri yoki sud majlisining kotibi o`qib eshittiradi. Taraflar ushbu hujjatlarga nisbatan o`zlarining fikrlarini bayon qiladilar. Shundan so`nggina sud hujjatlarni ishga qo`shish yoki tegishliligiga qarab qaytarish to`g`risida ajrim chiqaradi. Sud tergovni mobaynida ko`zdan kechirish (JPKning 444-moddasi), Guvohlantirish (JPKning 445-moddasi), Ekspertiza tayinlanishi va o`tkazilishi (JPKning 446-moddasi), Tanib olish uchun ko`rsatish (JPKning 447-moddasi), eksperiment o`tkazish, ekspert tekshiruvni uchun namunalar olishni amalga oshirilishi mumkin.

Sud tergovni tamomlanishi O`zbekiston Respublikasi JPKning 448-moddasiga asosan, barcha dalillar tekshirib chiqilganidan keyin raislik qiluvchi taraflardan ular sud tergovni to`ldirmoqchilarmi va to`ldirmoqchi bo`lsalar, nima bilan to`ldirmoqchi ekanliklarini so`rashi, basharti bu haqda iltimos qilinsa, sud uni muhokama qilishi va hal etishi bilan yakunlanadi. Sud tergovni tamom bo`lganligi haqida raislik etuvchi e`lon qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O`zbekiston Respublikasi jinoyat protsessi mualliflar jamosi. IIV Akademiyasi T.2012 darslik 407 b.
2. Jinoyat protsessi maxsus qism mualliflar jamosi daslik TDYI 513b